

ÖZBEKİSTON RESPUBLİKASI OLIY VA O'RJA MANSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIY OT INSTITUTI



**GEODEZIYA
FANINING O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: **700 000 – Muhandislik, ishlav berish va qurilish sohalari**

Ta'lim sohasi: **710 000 – Ishlab chiqarish va ishlav berish sohalari**

Ta'limi yo'nalishlari: **60722000 – Marksheyderlik ishi**

Qarshi- 2022

Fan (modul) kodi GEOD1107	O'qiv yili 2022-2023	Semestr 1-2	ECTS krediti 8			
Fan (modul) nomi Majbary	Ta'lim tili o'zbek		Haftalik dars soati 4-4			
Fanning nomi 1	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)			
Geodeziya	120	120	240			
I. Fanning mazmuni.						
Geodeziya fanini maqadi- yerning shakli va o'lchamlarini, qo'llaniladigan koordinatalar tizimlaridan foydalanib masalalar yechishni, yer yuzasida o'lchash ishlarni bajarishni, matematik jihatdan ishlab chiqishni va ularni grafik rasmiylashtirishni va plpn ko'rinishida tayyorlash masalalarini yechishni o'rgatishdir.						
Geodeziya fanning vazifasi – talabalarni zamonaviy, yangi, takomillashgan o'lchash asbobalaridan mustaqil foydalanib geodezik daia o'lchash ishlarni bajarishni va shinchash natijalarini hisoblab chiqishni, plan,kartalarni tuzish, rasmiylashtirish va o'rgatish.						
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)						
II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:						
1 – mavzu. Geodeziya haqida ma'lumotlar.						
Geodeziya fani va uning vazifalari. Geodeziyaning xalq xo'jaligidagi va davlat mudofasidagi o'rni. Geodeziya fanining tarixiy rivojlanish haqida qisqa ma'lumot.						
2-mavzu. Geodeziyada qo'llaniladigan koordinataiar tizimi.						
Fazoviy: geografik va geodezik koordinata tizimlari. tekislikdag'i yassi koordinata tizimlari.						
3-mavzu. Oriyentirlash(yo'naltirish). Joyda chiziqni yo'nalishini aniqlash.						
Geodezik oriyentirlash tushunchasi. Joyda chiziqlar yo'nalishini aniqlash. Haqiqiy azimut va rumblar. Meridianlar yaqinlashish burchagi. Direksion burchak. Direksion burchak va rumb burchaklari orasidagi munosabat. Xaqqiy azimut va magnit azimutlari. Magnit strelkasini og'ish burchagi. Kartadagi chiziqning direksion burchagini o'lchash, xaqiqiy azimutini, magnit azimutini va rumbini aniqlash.						
4-mavzu. Geodezik o'lhashlarda xatoliklar nazariyası elementlari.						
O'lhashlar va ularning turlari. O'lhash xatolari va xato turlari: sistematik, tasodifiy va qo'pol xatolar. O'lhash xatolari nazariyasining vazifalari. Tasodifiy xato xossalari. O'lhash natijalarini aniqligini baxolash ko'rsatgichlari. Arifmetik o'rta miqdor prinsipi. O'lhash aniqligini baxolash. O'rta kvadratik xato, chekli xato, o'rta kvadratik nisbiy xato, xaqiqiy nisbiy xato, o'rtacha nisbiy xato, chekli nisbiy xato. Arifmetik o'rta mikdorning o'rta kvadratik xatosi. Teng va tengemas o'lhashlar. O'lhash natijalarining vazni. O'rta kvadratik xatoni eng extimoliy						



nato orqali ifodalash. Bessel formulasi.

5-mavzu. Topografik karta va planlar.

Karta va plan tushunchasi. Kartalar klassifikatsiyasi. Raqamli karta va planlar. Joyni raqamli modeli. Masshtablar. Sonli masshtab va natural masshtab. Masshtab asosi. Masshtab aniqligi. Chiziqli masshtab va ko'ndalang masshtab. ularning aniqligi asosida plan tuzish.

6-mavzu. Topografik karta va planlarning varaqlarga bo'linishi va nomenklaturasi.

Joyning relefni va uni karta va planlarda tasvirlanishi: gorizontallar va bergshtrixlar. Turli masshtabdagi kartalarda relaf qirqim balandligi. Nuqtalarning e'metkalari bo'yicha gorizontallar o'tkazish.

7-mavzu. Geodezik to'rlar.

Geodeziyadagi asosiy koordinata tizimlari. Geodezik to'rlarni barpo qilishning ana'naviy usullari. Planli va balandlik geodezik to'rlar. Planli tarmoqlarni o'matish usullari. Triangulyatsiya, trilateratsiya va poligonometriya. ularning klasslari. I larni barpo etishda talab etilgan aniqliklar. Planli to'r punktlarini joyga o'matish: geodezik markaz va belgilari. Geodezik signal, geodezik piramida.

8-mavzu. Joyda masofa o'lchash.

Joyda masofa o'lchashning maksad va moxiyati. Masofa o'lchashda qo'llanadigan asbob turlari, uning aniqliklari va o'lchash uslublari. O'lchov vositalarini tekshirish, komporatorlar. Lenta va ruletka yordamida masofa o'lchash. Qiyalikda o'lchangan masofa gorizontal quyilmasini aniqlash. o'lchash natijalariga tuzatmalar kiritish (komporator tuzatmasi). Doimiy burchakli va doimiy bazisli optik dalnomerlar bilan masofa o'lchash. Ipli dalnomer koefitsientini aniklash. ipli dalnomer ish formulasini.

9-mavzu. Bilvosita masofa o'lchash.

Svetodalnomer va radiodalnomerlarda masofa o'lchash tushunchasi. Elektron dalnomerlar va ular xaqida umumiy ma'lumot. Masofa o'lchashni impulsli usuli. Masofa o'lchashni fazali usuli. Zamonaviy elektron ruletkalar. Borib bo'lmash masofani aniqlash. Masofa o'lchashning parallaktik usuli.

10 – mavzu. Burchak o'lchash asboblari va teodolit qismlari.

Texnik teodolitlarni tekshirish va sozlash. Texnik teodolitlarni geometrik o'qlari. Teodolitni ish holatiga keltirish. Texnik teodolitlarni tekshirish shartlari.

11-mavzu. Teodolit bilan planga olish.

Teodolit bilan planga olishning mohiyati. Teodolit bilan planga olish dala ishlari. Joy konturi va predmetlarni planga olish usullari.

12-mavzu. Nivelirlash.

Nivelirlashning mohiyati va usullari: geometrik, trigonometrik, barometrik, gidrostatik va avtomatik nivelirlashlarning moxiyati, unda qo'llanadigan asboblar va asosiy formulalar. Geometrik nivelirlashning mohiyati va uslublari. Nivelirlash natijalariga yer egriligi va refraksiyaning ta'siri. Nivelir va nivelirlash reykalarining turlari va ularni tuzilishi. Nivelir va nivelirlash reykalarini tekshirish va sozlash.

13-mavzu. Texnikaviy nivelirlash.

Bo'ylama texnikaviy nivelirlash. Texnikaviy nivelirlash yo'lini marka va reperlarga bog'lash. Bo'ylama texnikaviy nivelirlashda ish tartibi. Trassa qayrilma

elementlari, trassa piketlari bo'yicha geometrik nivelerlash ishlari, nivelerlash natijalarini nazorat qilish usullari.

14-mavzu. Yuzani texnikaviy nivelerlash.

Yuzda nivelerlash usuli haq qo'llanish soxusi va ish tarkibi. Kvadratlar usulida yuzani nivelerlash. Yuzani vertikal loyixalash. Geodezik tayanch torrlari.

15-mavzu. Taxeometrik planga olish.

Taxeometrik planga olishning mohiyati. Taxeometrik planga olish ish tarkibi. Taxeometrik planga olish dala ishlari. Tafsilot va relefni planga olish usullari.

III. Amaliy mashg'ulotlari boyicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Topografik karta bilan ishlash. Topografik karta bilan tanishish. Topokarta va planlarni o'qishni o'rGANISH.

2. Topografik kartada berilgan nuqtalarni koordinatalarini aniqlash.

3. Teodolit yo'li natijalarini hisoblash.(yopiq teodoli yo'li).

4. Koordinata torrlarini qurish va punktlar o'rnini aniqlash.Rasmiylashtirish.

5. Texnik nivelerlash jurnalini hisoblash.

6. Texnik nivelerlash natijalari bo'yicha profil chizish.

7. Nuqtalarni absolyut balandliklari bo'yicha relefni tasvirlash.

Amaliy mashg'ulotlar multimediya qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruxga bir professor – o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogic va axborot texnologiyalar qo'llanishi maqsadga muvofiq.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha afedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari boyicha olgan bilim va ko'nikmalarni amaliy masalalar, keyslar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chip etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar yechish, normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanish va boshqalar tavsiya etiladi.

III.I. Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar.

Laboratoriya ishlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Topografik kartada berilgan maydon yuzalarini hisoblash.

2. 2T30 teodoliti bilan tanishish, tuzilishini, tekshirishni va yustirovkalashni o'rGANISH.Teodolitni sinash va tekshirishni o'rGANISH.

3. 2T30 teodoliti yordamida gorizontal burchakni o'lchashni o'rGANISH.

4. 2T30 teodoliti yordamida vertikal burchakni o'lchashni o'rGANISH.

5. N-3 niveleri bilan tanishish, tuzilishini, tekshirishni o'rGANISH.

6. Reykalar yordamida sanoq olishni, nisbiy balandliklarni o'lchashni o'rGANISH.

7. Nivelir yordamida olingan qiymatlarni qayta tekshirish va hisoblash ishlarini o'rGANISH.

Laboratoriya mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruha bir professor-o'qituvchi tomonidan

o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faoliy va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

III.II Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar.

Fan bo'yicha kurs ishlari namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

IV. Mustaqil ta'llim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'llim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Yer shakli va kattaligi. Fan tarixi va rivojining tendensiyasi, istiqboli.
2. Geoid, ellipsoid va referens ellipsoid. Geodeziyada qo'llaniladigan koordinatalar tizimlari.
3. Orijentirlash (yo'naltirish). Joyda chiziq yo'nalishi. Haqiqiy va magnit azimuti. Direksion burchak va rumb.
4. Geodezik o'lchashlar, ularning aniqligi va xatoliklari.
5. Xarita, plan, profil. Xaritalar klassifikatsiyasi.
6. Plan, xaritalar nomenklaturasi. Xaritalarni o'rganish va shartli belgilar.
7. Geodezik ishlari. Geodezik tarmoqlari. Davlat geodezik tarmoqlari: planli va balandli, ularni o'rnatish. Tarmoqlarni yaratishni triangulyatsiya, trilateratsiya va poligonometriya uslublari.
8. Joyda masofa o'lchash maqsadi va moxiyati. Masofa o'lchashda qo'llaniladigan asbob turi. O'lchov vositalarini komparirlash. Gorizontal va qiya masofani o'lchash natijalari.
9. Zamonaviy elektron masofa o'lchovchi asboblar. Svetodalnomerlar. Lazerli ruletkalar. Taxeometrlar.
10. Geodezik o'lchashlar. Burchak o'lchash asboblari. Teodolitiarning tuzilishi, ularni tekshirish. Gorizontal va vertikal burchak o'lchash mohiyati.
11. Zamonaviy teodolitlar.
12. To'g'ri va teskari geodezik masala.
13. Zamonaviy nivelerlar. Nivelir reykalari.
14. Nisbiy balandlik o'lchash usullari: geometrik, trigonometrik, barometrik, gidrostatik, mexanik nivelerlash.
15. Trigonometrik nivelerlash va geometrik nivelerlash ishlari, foydalanadigan asboblar.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentliklar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Geodeziya fanini yuqori darajada rivojlantirish omillari haqida **tasavvur va bilimga ega bo'lishi**;
- ta'llim yo'nalishlari bo'yicha qo'llaniladigan asosiy masalalalarni yechish,

surʼil xususiyatlarini, bilish va ulardan foydalanish *koʼnikmalariga ega boʼlishi*.

talaba odib beriladigan ishim mazmun-mohiyatini bilish, ulardan foydalanish, *ege boʼlishi kerak*.

4

VI. Taʼlim texnologiyalari va uslublari

- maʼruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- guruhlarda ishlash;
- taʼqdimotlarni qilish;
- individual loyiham;
- tanoa boʼlib ishlash va himoya qilish uchun loyiham.

5

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Enga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni toʼla oʼzlashtirish, taxlil natijalarini toʼgʼri aks ettira olish, oʼrganiliyotgan jarayonlar haqida mustaqil mushkada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiqlarni bajarish, yakuniy nazorat boyicha yozma (test) ishi topshirish.

6

Asosiy adabiyyotlar

1. Charles D. Ghilani and Paul R.Wolf. Elementary surveying. Anintroduction to geomatics.12 edition. 2008. ISBN-13:978-0-13-615431-0.

2 Neumivakin Y. K. Geodeziyadan praktikum (rus).- M.: Geoizdat, 2000.

3. Joʼrayev D.O . Geodeziya . Oʼquv qoʼllanma.- T.: TDTU, 2006 .

4. Kuzumova G.S. GeodeziY. Darslik.Toshkent .- “Fan vatexnologiya” – 2019.

Qoʼshimcha adabiyyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги №Ф-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида»ги фармони.

2.Mirzijoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

3. Ozbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʼyicha Harakatlar strategiyasi toʼgʼrisida.- T.:2017 yil 7 fevral. PF-4947-sonli Farmoni.

4. Sayyidqosimov S.S., Mingbayev D.I. Topografiya asoslari. Oʼquv qoʼllanma.- T.: Noshir , 2013.

5. Охунов З.Геодезиядан практикум..-Т.: УзМУ, 2009.

Internet saytlari

1. <http://www.GPS.ru>

2. <http://www.miigaik.ru>

3. <http://www.elibraty.ru/> - nauchnaya elektronnaya biblioteka.

4. <http://mggu.ru>– Moskovskiy gosudarstvenniy gorniy universitet.

5. <http://www.rsl> – Rossiyskaya gosudarstvennaya biblioteka.

6. www.gov.uz – O’zbekiston Respublikasi xukumat portali.

7. www.lex.uz– O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi.

8. www.Ziyo.net.

9. www.ziyonet.uz– O’zbekiston Respublikasi taʼlim portalı.

Fan dasasi Qarshi muhandislik-ijtisodiyot institutining kengashida ko'rib
chiqildi va kengashning 2022 yil **28.06** 11-solli majlis bilan
tasdiqlandi

Fan/modul uchun masullar:

8 G.N.Aliqulov - QarMII, "Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish"
kafedrasи dottseri
Mirzayev J.O. QarMII, "Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish" kafedrasи
o'qinuvchisi.

Taqribchilar:

9 K.Xo'jakeldiyev - QarMII "Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish"
kafedrasи dottseri.
A.Jo'ravayev - "Orz davlerloyiha" DILI Qashvilerloyiha bo'linmasi bosh
muhandisi